
**Nemis tilida yozilgan diniy matnlar
tarkibidagi deiktik birliklarning
funksional va semantik
xususiyatlari****Abduraxmonova Ra'no Kosimovna**r.abdurakhmonova@mail.ru

Mustaqil izlanuvchi (DSc),

Namangan davlat chet tillar instituti

Annotatsiya Ushbu maqolada nemis tilida yozilgan diniy matnlarning tarkibida uchraydigan deiktik birliklarning funksional va semantik xususiyatlari lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Diniy diskursda deiksis faqat ishora yoki grammatik vosita emas, balki ruhiy va kommunikativ aloqani ifodalovchi pragmatik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada shaxs, joy va vaqt deiksisi orqali ilohiy murojaatning ifodalanish usullari, ularning o'zbek tili tizimidagi ekvivalentlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar chuqur o'rganiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nemis diniy matnlaridagi deiktik birliklar Xudo va inson o'rtasidagi muloqotni yaqinlashtirish, diniy g'oya va hissiy holatni kuchaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, lingvopragmatika va diniy diskurs tahlilida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar Deiksis, diniy diskurs, shaxs deiksisi, joy va vaqt deiksisi, semantika, pragmatika

**Функциональные и
семантические особенности
дейктических единиц в составе
религиозных текстов на
немецком языке****Абдурахмонова Раъно Косимовна**r.abdurakhmonova@mail.ru

Независимый соискатель (DSc),

Наманганский государственный институт
иностранных языков

Аннотация В данной статье рассматриваются функциональные и семантические особенности дейктических единиц, встречающихся в немецкоязычных религиозных текстах, на основе лингвопрагматического подхода. В религиозном дискурсе дейксис выступает не только как грамматическая категория, но и как прагматическое средство выражения духовной и коммуникативной связи. В работе анализируются особенности личного, пространственного и временного дейксиса, их эквиваленты в узбекском языке, а также семантические преобразования, возникающие в процессе перевода. Результаты исследования показывают, что дейктические единицы способствуют созданию эффекта божественного общения и усилению эмоционального воздействия текста.

Ключевые слова Дейксис, религиозный дискурс, личный дейксис, пространственный и временной дейксис, семантика, прагматика

Functional and semantic features of deictic units in German religious texts

Abdurakhmonova Rano Kasimovna

r.abdurakhmonova@mail.ru

Independent Researcher (DSc),

Namangan State Institute of Foreign Languages

Annotation *This article analyzes the functional and semantic features of deictic units found in German religious texts from a linguo-pragmatic perspective. In religious discourse, deixis serves not only as a grammatical category but also as a pragmatic device expressing spiritual and communicative connection between the divine and the human. The study explores personal, spatial, and temporal deixis, their equivalents in the Uzbek language, and the semantic shifts occurring during the translation process. The findings demonstrate that deictic units play a significant role in enhancing the emotional and spiritual impact of religious texts. The results are practically valuable for translation studies, linguo-pragmatics, and discourse analysis.*

Keywords *Deixis, religious discourse, personal deixis, spatial and temporal deixis, semantics, pragmatics*

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida tillararo muloqot, madaniyatlararo aloqalar va diniy matnlarning tarjimai insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Xususan, diniy matnlarning tahlili, ularning ma'naviy, semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda tarjimashunoslik, lingvopragmatika va madaniyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb yo'nalishlardan biridir.

Nemis tilida yozilgan diniy matnlar o'zining murakkab grammatik tuzilishi, chuqur semantik qatlamlari hamda ilohiy mazmuni bilan boshqa turdagi matnlardan ajralib turadi. Bu matnlarda deiktik birliklar – ya'ni shaxs, joy va vaqtga ishora qiluvchi lingvistik elementlar – muhim kommunikativ va semantik vazifani bajaradi. Deiksis yordamida muallif o'zining ruhiy holatini, Xudo bilan muloqot jarayonidagi ichki kechinmalarini va voqelikni idrok etish nuqtasini ifodalaydi. Shu jihatdan, diniy matnlarda deiktik birliklar nafaqat grammatik ko'rsatkich, balki ma'naviy aloqa vositasi, ilohiy

murojaatning semantik markazi sifatida namoyon bo'ladi.

Nemis diniy matnlarida deiktik birliklarning qo'llanilishi o'ziga xos funksional-semantik tizimni tashkil etadi. Masalan, "Ich bin bei euch alle Tage" (Men sizlar bilanman har kuni) kabi Injil so'zlarida "Ich" (men) shaxs deiksisi nafaqat gapning grammatik subyekti, balki ilohiy mavjudlikning timsoli, Xudoning inson bilan muloqotini ifodalovchi ruhiy markaz sifatida talqin qilinadi. O'zbek tilida esa bunday birliklar "Men sizlar bilan har kuni birgamman" tarzida tarjima qilinib, emosional va diniy uyg'unlikni saqlab qoladi. Diniy diskursning asosiy xususiyati shundaki, unda har bir til birligi, ayniqsa deiktik vositalar, ruhiy mazmun va semantik chuqurlik bilan boyigan bo'ladi. Shu sababli, deiktik birliklarni faqat grammatik ko'rsatkich sifatida emas, balki madaniy, diniy va psixolingvistik komponentlar bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – nemis tilida yozilgan diniy matnlarda qo'llanilgan deiktik birliklarning funksional va semantik xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zbek

tilidagi tarjimalari bilan solishtirish va tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik-pragmatik o'zgarishlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u diniy matnlarni lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qiladi, deiksisning kommunikativ, semantik va madaniy funksiyalarini uyg'un holda yoritadi hamda nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi tipologik farqlarni diniy diskurs kontekstida ochib beradi. Ushbu ishning natijalari tarjimashunoslik, lingvopragmatika, diniy diskurs tahlili va chet tillarini o'qitish metodikasida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarga, tarjimonlarga va tilshunos tadqiqotchilarga qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Deiksis hodisasi lingvistikada eng qadimiy va shu bilan birga, eng zamonaviy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U ilk bor K. Bühler tomonidan 1934-yilda nashr etilgan "Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache" asarida tizimli tarzda o'rganilgan. Bühler deiksisni tilning "ko'rsatish funksiyasi" (Zeigfeld) sifatida izohlab, "ichki nutq markazi" (Origo) tushunchasini ilgari surgan. Bu nazariy qarash keyinchalik nemis diniy matnlari tahlilida asosiy metodologik yo'nalishlardan biriga aylangan.

Nemis tilshunosi Karl Bühlerdan so'ng, Stephen C. Levinson (1983) o'zining mashhur "Pragmatics" asarida deiksisni lingvopragmatikaning markaziy kategoriyasi sifatida ko'rib chiqadi. U deiktik birliklarni besh turga – shaxsiy, joy, vaqt, nutqiy (discourse) va ijtimoiy deiksigga ajratgan. Levinsonning bu klassifikatsiyasi diniy matnlar tahlilida, xususan, Injil va Luter tarjimalarida keng qo'llanilmoqda.

Lyons, John (1977) o'zining "Semantics" nomli ikki jildli asarida deiktik birliklarning semantik mohiyatini chuqur yoritgan. Unga ko'ra, deiksis "tildagi situatsion ma'nolarning markazi" bo'lib, kontekstsiz tahlil qilish mumkin emas. Diniy matnlar esa aynan kontekstga eng kuchli tayanadigan janr hisoblanadi.

Shuningdek, Fillmore (1975) "Deixis, Demonstratives, and Presupposition"

maqolasida deiksisni inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, u orqali "sub'ektiv vaqt va makon idroki"ni ifodalash mumkinligini ta'kidlaydi. Bu g'oya diniy matnlar, xususan, nemis tilidagi Lutherbibel (1534) tarjimasidagi "Ich bin" ("Menman") kabi shaxs deiksislarining semantik kuchini tushuntirishda muhim asos bo'ladi.

Nemis diniy matnlari bo'yicha maxsus tadqiqotlar orasida D.W. Crystal (2010)ning "A Little Book of Language", shuningdek E. Traugott & R. Dasher (2002)ning "Regularity in Semantic Change" asarlari e'tiborga loyiq. Ular semantik o'zgarishlar, ayniqsa diniy so'z birikmalaridagi metaforik kengayishlar orqali deiktik birliklarning ma'no ko'lamini ochib bergan.

Germaniya olimlaridan Werner Kallmeyer (2005) va Susanne Günthner (2011) o'z ishlari orqali diniy diskursda deiktik birliklarning ijtimoiy-pragmatik funksiyalarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida "biz" ("wir") shaklining cherkov nutqidagi jamoaviy identitetni shakllantirishdagi roli alohida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida esa deiksis masalalari asosan umumiy lingvopragmatika doirasida o'rganilgan. A. Madvaliyevning "Pragmatika va nutq tahlili" (Toshkent, 2015) asarida deiktik birliklar nutqiy muloqotda shaxs va makon ko'rsatkichi sifatida tahlil qilingan. N. Yo'ldosheva (2019) esa diniy matn tarjimasida shaxs deiksisining semantik o'zgarishlarini o'zbek va rus tillari misolida solishtirgan.

Tahlil va Natijalar

Nemis diniy matnlari – xususan, Martin Luther tarjimasidagi Injil – deiktik birliklarning eng faol ishlatiladigan manbalaridan biridir. Chunki diniy matnlarning asosiy maqsadi – mavhum ilohiy g'oyani aniq kommunikativ shaklda ifodalash, ya'ni inson va Xudo o'rtasidagi muloqotni til orqali qurishdir. Shu bois, bu matnlarda deiksisning shaxsiy, joy va vaqt turlari ko'p uchraydi.

1. Shaxsiy deiksis (Personendeixis)

Shaxs deiksisini nemis diniy matnlarida nutq sub'ekti va adresat o'rtasidagi masofani

kamaytirish, ruhiy yaqinlikni yaratish uchun xizmat qiladi. Masalan:

"Ich bin der Weg, die Wahrheit und das Leben." (Yuhanno 14:6) Tarjimasi: "Men yo'lman, haqiqatman va hayotman."

Bu misolda "Ich" (Men) zamirasi Xudo yoki Iso Masihning o'zini bevosita ifodalash uchun ishlatilgan. Pragmatik jihatdan "Ich" bu yerda ilohiy markaz, ya'ni "origo" rolini bajaradi. O'zbek tiliga tarjima jarayonida bu birlik ko'pincha semantik jihatdan o'zgarishsiz tarjima qilinadi, ammo konnotativ ma'no jihatidan "Men" so'zi oddiy inson "men"idan farq qiladi – bu "ilohiy Men"dir. Yana bir misol: "Du sollst keine anderen Götter haben neben mir."

(Chiqish 20:3) Tarjimasi: "Mendan boshqa xudolarga sig'inma."

Bu yerda "Du" (sen) zamirasi ikkinchi shaxs bo'lib, ilohiy buyrug'ning bevosita adresatini bildiradi. Nemis tilida bu so'z yaqin muloqot shakli ("duzzen")da ishlatilgan bo'lsa, o'zbek tarjimasida u adabiy, buyruq ohangidagi "sen" shaklida aks etgan. Bu holatda pragmatik ekvivalentlik saqlangan bo'lsa-da, ijtimoiy masofa jihatidan semantik zichlik kamayadi.

Bundan tashqari, "wir" ("biz") zamirasi diniy matnlarda jamoaviy identitetni yaratishda muhim vosita sanaladi: "Wir danken dir, Herr, unser Gott." Tarjimasi: "Ey Rabbimiz, biz Senga shukur qilamiz."

Bu yerda "wir" jamoaning birligi, ruhiy hamjihatlikni ifodalaydi. O'zbek tarjimasida "biz" orqali bu birlik saqlanadi, ammo madaniy konnotatsiya (cherkov jamoasi) o'zbek kontekstida to'liq anglashilmaydi. Shu sababli tarjimonning interkultural kompetensiyasi juda muhim.

2. Joy deksisi (Lokaldeixis)

Diniy matnlarda joy deksisi ilohiy makon va insoniy makon o'rtasidagi semantik farqni belgilaydi. "Der Herr ist in seinem heiligen Tempel." (Zabur 11:4) Tarjimasi: "Rabb o'z muqaddas ma'badidadir." Bu misolda "in seinem heiligen Tempel" birikmasi joy deksisi sifatida ishlatilgan. "Seinem" so'zida joy va egalik munosabati uyg'unlashgan bo'lib, bu

Xudoning joyini bildiradi, ya'ni "ilohiy makon". O'zbek tilida "o'z muqaddas ma'badida" shaklida tarjima qilinganda, joyning ilohiy semantik yuklamasi saqlanadi, ammo "Tempel" so'zining madaniy-religioz konnotatsiyasi (Cherkov yoki Yahudiy ibodatxonasi) har doim ham to'liq o'tmaydi.

Yana bir misol: "Komm her zu mir, alle, die ihr mühselig und beladen seid." (Matto 11:28) Tarjimasi: "Ey mehnat tortganlar va yuk ostidagi kishilar, menga kelinglar." Bu yerda "her zu mir" ifodasi joy deksisi + shaxsiy deksisning birlashgan shaklidir. "Her" (bu yoqqa, shu tomonga) nutq markaziga, ya'ni so'zlovchiga nisbatan yo'nalishni bildiradi. Tarjimada bu birlik "menga kelinglar" shaklida semantik jihatdan to'liq mos keladi, ammo dinamik harakat (yaqinlashish)ning psixologik ohangi biroz yumshaydi.

3. Vaqt deksisi (Temporaldeixis)

Vaqt deksisi diniy matnlarda abadiylik va vaqtning nisbiyligini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. "Am Anfang war das Wort, und das Wort war bei Gott." (Yuhanno 1:1) Tarjimasi: "Boshida So'z bor edi, So'z Xudo bilan edi." "Am Anfang" (boshida) ifodasi vaqt deksisining klassik shaklidir. Bu vaqt aniq tarixiy momentni emas, metafizik boshlanish nuqtasini bildiradi. O'zbek tarjimasida "boshida" shakli semantik jihatdan mos keladi, ammo ontologik chuqurlikni to'liq aks ettirish uchun tafsiriy sharh talab etiladi.

Yana bir misol: "Heute, wenn ihr seine Stimme hört, so verstockt eure Herzen nicht." (Ibroniylarga 3:7–8) Tarjimasi: "Bugun Uning so'zini eshitsangiz, qalbingizni toshday qilmang." Bu yerda "heute" (bugun) vaqt deksisi ogohlantirish va aktual muloqot funksiyasiga ega. "Bugun" zamon shakli o'zbek tilida ham aynan pragmatik ekvivalentlikni saqlaydi – ya'ni Xudoning murojaati doim hozirgi zamonda kechayotgani ta'kidlanadi.

4. Diskursiv va ijtimoiy deksis (Diskurs- und Sozialdeixis)

Diskursiv deksis diniy matnlarning ichki tuzilishida, avvalgi yoki keyingi nutq qismlariga ishora qilish orqali tahlil qilinadi.

“Wie oben gesagt ist ...” Tarjimasi: “Yuqorida aytilganidek ...” Bu struktura diniy asarlarda ko'p uchraydi va u metatekstual bog'lanishni ta'minlaydi. Tarjima jarayonida “aytilganidek” iborasi o'zbek tilida pragmatik jihatdan mos keladi, lekin nemis tilining formal-logik strukturaliligi biroz yo'qoladi.

Ijtimoiy deiksis esa diniy matnlarda Rabbimiz, Parvardigor, Siz kabi murojaat shakllarida namoyon bo'ladi. Masalan: “Herr, erbarme dich über uns.” Tarjimasi: “Ey Rabbim, bizga rahm qil.” Bu iborada “Herr” (Rabb) diniy-podsholik unvoni sifatida ishlatilgan, u ijtimoiy pog'onani bildiradi. Tarjimada “Ey Rabbim” shakli madaniy jihatdan mos bo'lib, konnotatsiya to'liq saqlanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki:

- Nemis diniy matnlarida deiksislar nafaqat grammatik, balki ilohiy-falsafiy vazifani bajaradi.
- Tarjimada esa bu birliklar semantik va madaniy filtrlardan o'tadi.
- O'zbek tilida “Men”, “Sen”, “Bu yerda”, “Bugun” kabi birliklar grammatik jihatdan mos tushadi, ammo madaniy va diniy konnotatsiyalarni to'liq uzatish uchun tarjimonning kontekstual idroki talab etiladi.

Masalan, “Ich bin” ifodasi oddiy “Menman” emas, balki “Abadiy mavjud bo'lgan Zotman” degan teologik ma'noni anglatadi. Shuning uchun deiktik birliklarning tarjimasi lingvopragmatik ekvivalentlik asosida bajarilishi zarur.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, deiktik birliklar diniy matnlarda nafaqat grammatik ko'rsatkich, balki chuqur semantik va pragmatik yuklamaga ega bo'lgan

diskursiv vosita sifatida namoyon bo'ladi. Nemis tilidagi diniy matnlar, xususan, Lutherbibel tarjimasida shaxs, joy va vaqt deiksislari orqali Xudo va inson o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy hamda muloqotiy masofa ifodalanadi.

Deiksis vositalari, ayniqsa, “Ich” (men), “Du” (sen), “Wir” (biz) zamiralari orqali ilohiy muloqotning subyektiv aspektlarini yoritadi. “Ich” shakli Xudoning mavjudligi va abadiyligini anglatadigan teologik markaz sifatida tahlil qilinadi, “Du” esa insonni bevosita muloqot maydoniga kiritadi. Shu bois, deiktik birliklar diniy nutqning semantik izchilligini, muloqotiy dinamikmini va pragmatik maqsadini belgilab beradi.

Tarjima jarayonida esa deiktik birliklarning semantik ekvivalentligini saqlash doimo oson emas. Chunki nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi tipologik, madaniy va diniy tafovutlar ba'zan ilohiy mazmunni to'liq aks ettirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, tarjimonning interkultural kompetensiyasi va pragmatik sezgirligi muhim omil hisoblanadi. Deiksisning lingvopragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, diniy matnlarning ma'nosi faqat grammatik yoki semantik sathda emas, balki kontekstual va madaniy darajada ochiladi. Shu bois, har bir deiktik birlikning tarjimasi nafaqat leksik jihatdan, balki madaniy ekvivalentlik tamoyili asosida amalga oshirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, nemis diniy matnlarida deiktik birliklar til, madaniyat va e'tiqodning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab semantik hodisa bo'lib, ularni o'rganish diniy diskursni chuqurroq anglash, tarjima nazariyasini boyitish va interkultural muloqotni rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bühler, K. (1934). *Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache*. Jena: Fischer Verlag.
2. Crystal, D. (2010). *A Little Book of Language*. Yale University Press.
3. Fillmore, C. (1975). *Deixis, Demonstratives, and Presupposition*. In C. Li (Ed.), *Subject and Topic*. New York: Academic Press.

4. Günthner, S. (2011). *Discourse Pragmatics and German Religious Language*. Berlin: Mouton de Gruyter.
5. Kallmeyer, W. (2005). *Interaktion und sprachliche Strukturen*. Berlin: De Gruyter.
6. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vol. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Madvaliyev, A. (2015). *Pragmatika va nutq tahlili*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
9. Nerlich, B. (2012). *Meaning, Frames and Metaphors in Discourse and Communication*. John Benjamins Publishing.
10. Traugott, E., & Dasher, R. (2002). *Regularity in Semantic Change*. Cambridge University Press.